



RUS VA O‘ZBEK FRAZELOGIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Andijon Davlat chet tillar instituti talabasi

Karimjonova Dilnura Isroiljon qizi

Ilmiy maslahatchi: Abdullayev Sirojiddin Shaxsultanovich

Annotatsiya: *ushbu maqolada dunyoda o‘rganilishi va grammatikasi jihatidan qiyin bo‘lgan rus tili va o‘zbek tilidagi frazeologik birliklaridagi ma‘no jihatidan o‘xshashliklari, leksik ma‘no xususiyatlari haqida so‘z boradi. Frazeologizmlarning funksional-pragmatik jihatlari tadqiq qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *leksema, frazeologik birlik, stilistik funksiya, grammatik aspekt, antonim frazeologik birliklar.*

Аннотация: *в данной статье говорится о сходстве по смыслу, особенностях лексического значения во фразеологических единицах русского языка и узбекского языка, которые сложны в изучении и грамматике в мире. Изучаются функционально-прагматические аспекты фразеологизмов.*

Ключевые слова: *лексема, фразеологизм, стилистическая функция, грамматический аспект, антоним фразеологизмов.*

Bugungi kunda nafaqat yurtimizda, balki dunyo miqyosida ham chet tillarini o‘rganishga talab ortib bormoqda. Lekin, ayrim til o‘rganayotgan yoshlar uchun biror bir tilni grammatik qoidalar asosida o‘rganish unchalik muhim emasdek ko‘rinmoqda. Ayniqsa tillardagi funksional jihatlari, ularda qo‘llaniladigan uslublarning bir-biriga mos kelmasligi yoshlarni tilni «Ohiri yo‘q bilimlar majmuasi» degan qarashga olib kelmoqda.



Darhaqiqat, har bir til o'ziga yarasha qonuniyatlar, tamoyillarga ega tizimdir. Ularni puxta o'zlashtirish uchun esa, mana shu qonuniyatlarga asoslangan holda bilim olish va olingan bilimlarni amaliyotda ham qo'llay olish talab etiladi. Har bir til leksik va grammatik jihatdan o'rganiladi. Hozir munozara qilmoqchi bo'lgan mavzuyimiz ham tilni leksik taraflama o'rganish, ya'ni, rus va o'zbek tillarida frazeologik birliklar va ular o'rtasidagi bog'liqlik mavzusidir.

Rus tili ham, o'zbek tili ham so'z jihatidan juda boy tillar hisoblanadi. Bu fikrimga dalil sifatida bobokalonimiz Alisher Navoiyning o'z asarlarida 200365 ta, buyuk rus adibi Aleksandr Sergeyevich Pushkinning esa 21193 ta so'z ishlatganlarini keltirish mumkin. Har bir til o'zining etimologiyasi, leksik-semantik birliklari mavjud va shu qatorda turg'un birikmalar, ya'ni frazeologik birliklar jihatidan ham boy bo'ladi. Yuqorida ta'kidlab o'tgan ikki tilimiz, o'zbek va rus tillari ham ushbu jihatdan yetarlicha manbalarga ega tillar hisoblanadilar.

Frazeologiyaga tushunchasi tilshunoslikka 1905 yilda g'arb olimi Sh. Bali tomonidan kiritilgan. Rus tilshunosligida uning shakllanishi A.A Potebnya, I.I Sreznevskiy, A.A Shaxmatov kabi olimlar bilan bog'liq. O'zbek tilshunosligida esa, frazeologiya yuzasidan tadqiqatlar o'tgan asrning 50-yillarida boshlangan bo'lib, Sh. Rahmatullayev, B. Yo'ldoshev, A. Mamatov, M. Sodiqova kabi olimlar tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan. Abdulla Qodiriy, Said Ahmad, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon kabi mashhur yozuvchilarning asarlari o'rganilib, ulardagi frazeologik birliklar lug'at sifatida shakllantirilgan.

Frazeologizm tushunchasini har kim har xil ta'riflaydi. Kimdir turg'un birikma, kimdir ibora, yana kimdir esa idioma deb ataydi. Bularning barini jamlagan holda «Frazeologizm-ikki va undan ortiq so'zdan tashkil topgan, o'z ma'nosini yo'qotib faqatgina ko'chma ma'noda qo'llana oladigan, ma'no jihatidan bir gapga teng keladigan birikmadir» degan xulosaga kelamiz. Iboralarda mavjud bo'lgan so'zlarni nutq jarayonida o'zgartirish mumkin emas, aks holda ulardagi



ma'no umuman o'zgarib ketadi. Iboralar uzoq yillardan beri nutq va yozilayotga asarning ta'sirli va qiziqarli chiqishi, tinglovchi va o'qivchilarni o'ziga birday jalb qilishi uchun ko'plab yozuvchi va notiqalar tomonidan keng qo'llanib kelinadi. Darhaqiqat, ular asarning ta'sirchanligini oshirib, ijobiy yoki salbiy bo'yoq vazifasini bajaradi.

Ayrim mustaqil so'z turkumlari kabi iboralar ham o'zaro sinonimlik, omonimlik va antonimlik hosil qiladilar. Bir biriga ma'nodosh bo'lgan iboralar sinonim iboralar hisoblanadi. "Kulini ko'kka sovurmoq-Yer bilan yakson qilmoq"-ushbu iboralar sinonim iboralarga misol bo'la oladi. Qarama qarshi ma'noli iboralar antonim iboralar sanaladi, masalan, "Dunyoga kelmoq-Dunyodan o'tmoq"- bu iboralarning biri tug'ilmoq ma'nosini anglatrsa, ikkinchisi vafot etmoq ma'nosini bildiradi. Bunday iboralar bizning ona tilimizda ham, rus tilida ham bisyor. Masalan, "У черта на куличках-Под носом" – ushbu iboralarining birinchisi uzoq degan ma'noni anglatrsa, ikkinchisi yaqin degan ma'noni bildiradi. Shakli bir xil, ma'nosi har xil bo'lgan iboralar esa, omonim, ya'ni, shakldosh iboralar deyiladi. "Boshga ko'tarmoq-

Boshga ko'tarmoq "- ushbu iboralarning biri ijobiy ma'noda qo'llaniladi, ya'ni hurmat qilmoq, e'zozlamoq ma'nosida. Ikkinchisi esa shovqin solmoq ma'nosini anglatadi. Tilimizda omonim iboralar ham bisyor.

O'zbek adabiyotining yorqin namoyondalari o'zlarining barcha asarlarida frazeologik birliklardan keng miqyosda foydalanishgan. Misol uchun Abdulla Oripovning quyidagi she'rini olamiz:

Hikmatli gaplarga quloq solmoq darkor,

Quloq solmoq darkor xalqning so'ziga.

Adibning bu baytida "Quloq solmoq" iborasi qo'langan bo'lib, eshitmoq, tinglamoq ma'nolarini ifodalaydi.



Rus adiblari ham o'zbek adiblari kabi turg'un birikmalardan keng miqyosda foydalanishadi. Ushbu ikki tilda uchraydigan iboralar ba'zan so'zma -so'z tarjima qilgan holatlarda o'z ma'nosini saqlab qoladi, ayrimlari esa umuman boshqa ma'no anglatadigan birikma sifatida hosil bo'lishi ham mumkin. Iboralardan ko'p foydalangan adiblardan biri Ivan Krilov bo'lib, u o'zining deyarli barcha masallarida iboralardan foydalangan. Uning iboralaridan birini misol qilib keltirsak, "Как в масле сыр кататься", ushbu ibora so'zma so'z tarjima qilinsa "sariyog'ichidagi pishloq kabi "degan ma'noni anglatadi, lekin bu birikmaning asl ma'nosi "To'qchilikda, farovon hayotda yashash" degan ma'noni anglatadi. Endi esa ikki til muhokamasiga o'tsak. Rus va o'zbek tillarida bir -biriga ekvivalent bo'la oladigan va bo'la olmaydigan iboralarni ham ko'rib chiqamiz.

“Язык доведёт до Киева “-“Sorab-so'rab Makkani topibdi”

Yuqoridagi ikki ibora ikki millatning an'alarini saqlagan holda tarjima qilingan. Rus tilidagi iboraning ma'nonosi "Til Kiyevgacha eltadi" bo'lsa, uni tarjima qilishda diniy an'analarga mos kelishi ta'minlangan. Qadim davrlarda Kiyev shahri rus millatining poytaxti bo'lganligi sababli markaz shahar hisoblangan. Makka shahri esa musulmonlar uchun markaz shahar hisoblanadi.

“Как снег на голову “-“Tomdan tarasha tushganday”

Ushbu ikki iboralar biror voqea hodisaning kutilmaganda røy berganini bildiradi. Rus tilida qo'llangan ibora so'zma so'z tarjima qilganda "Boshga tushgan qor kabi" degan ma'noni anglatadi. Lekin o'zbek tilida ushbu iborani o'quvchilarga to'g'ri va aniq yetkazish maqsadida ona tilimizdagi ibora bilan moslashtirib tarjima qilingan.

Hozirgacha ko'rib chiqqan iboralarimiz ma'no jihatidan o'xshash bo'lsa ham, so'zma so'z tarjima qilganda bir xil ma'no anglatmaydi. So'zma so'z tarjima qilganda ham bir xil ma'no anglatadigan iboralarga misol keltiramiz:



“Между двух огней”-“Ikki o‘t orasida”

“Капля в море”-“Dengizdan tomchi”

Yuqoridagi iboralar rus tilida ham o‘zbek tilida ham bir xil ma’no anglatadi. Birinchi misoldagi iboralar “ilojsizlik” ma’nosida qo‘llansa, ikkinchi misoldagi iboralar “oz miqdorda” degan ma’noni anglatadi.

Rus tilidagi iboralar kelib chiqishi va ma’no jihatidan 5 turga bo‘linadi:

- Diniy(“Bibliya” dan olingan) iboralar(Библейские)
- Kasb-hunar bilan bog‘liq iboralar(мастерские)
- Afsonalar(qadimgi Rim va Yunoniston afsonalari) bilan bog‘liq iboralar (мифологические)
- So‘zlashuvdagi iboralar(разговорные)
- Muallifga ega iboralar(авторские)

Tilshunoslikning boshqa birliklari kabi iboralarni ham qunt bilan o‘rganish, ulardagi leksik va grammatik jihatlarga e’tibor berish har bir til o‘rganishni istayotgan inson uchun muhim vazifadir. Dastlab natijaga erishish murakkabdek ko‘rinsada, insonning o‘zida xohish bo‘lsa ko‘z ilg‘amas marralarga ham yetish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Bekoeva.M.T.“ Теория общей фразеологии”
2. Erkaboyeva Nargiza “O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami”
- 3.Karimova Shahloza “Ingiliz va o‘zbek tillarida frazeologik intensivatorlarning funksional-pragmatik tadqiqi”.